

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
LOKOMOTIVLARNI TUZILISHI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN LOKOMOTIVLARNI TUZILISHI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Lokomotivlarni tuzilishi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Lokomotivlarni tuzilishi

1. Lokomotivlar klassifikatsiyasi;
2. Teplovozlarning tuzilishi va texnik ko‘rsatkichlari;
3. Elektrovozlarning tuzilishi va texnik ko‘rsatkichlari;
4. Ekipaj qismi uskunalarining tuzilishi;
5. Lokomotivlarning yordamchi tizimlari;
6. Lokomotivlarning yordamchi uskunalarining tuzilishi;
7. Teplovozlarning dizellarini sovutish tizimlari;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Lokomotivlar klassifikatsiyasi	Lokomotivlarda qo'llaniladigan uzatma turlarini o'rganish va tahlil qilishni bilish, quvvatni uzatish turlari, teplovozarlar va elektrovozlarning o'q formulalari o'rganadi. Elektrovozlarning o'q formulalari orqali undagi mavjud elementlarni farqlay oladi. Teplovozarlar va elektrovozlarning nomlanish turidan kelib chiqib energiya uzatish turlari bilan tanishish. Magistral lokomotivlarning klassifikatsiyasi bo'yicha taqsimlanishi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	4 ta
2	Teplovozlarning tuzilishi va texnik ko'rsatkichlari	O'zbekiston Respublikasi hududida harakatlanayotgan teplovozlarning rusumlari bo'yicha magistral va manyovr teplovozlarning tuzilishi va ishlash tartibi bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladi. Elektr uzatmali teplovozlarning rusumlari bo'yicha konstruksiyasini o'rganadi. Mexanik, gidravlik va elektr uzatmalarga ega bo'lgan teplovozarlar tuzilishini bilish va tushunadi. Teplovozlarning kuzov ichki qismi qurilmalari konstruksiyasini o'rganadi. Lokomotivlarning turlari bo'yicha uning energetik qurilmalarini ishlash sharoiti va texnik tavsifini tadqiq qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	14 ta
3	Elektrovozlarning tuzilishi va texnik ko'rsatkichlari	Elektrovozlarning rusumlari bo'yicha magistral elektrovozlarning tuzilishi va ishlash tartibi bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladi. Elektr uzatmali elektrovozlarning rusumlari bo'yicha tuzilishini o'rganadi. Elektrovozar-ning kuzov ichki va tashqi qismi qurilmalari konstruksiyasini o'rganadi. Lokomotivlarning turlari bo'yicha uning energetik qurilmalarini ishlash sharoiti haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	10
4	Ekipaj qismi uskunalarining tuzilishi	Lokomotivlarning yurish qismi tarkibi va vazifalari haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'ladi. Teplovozarlar va elektrovozlarning mexanik qismining asosiy uzellari va ularning vazifalari bilan tanishiladi. Teplovozarlar va elektrovozlarning kuzov turlari farqini bilish. Lokomotivlar aravachalarining turlari va umumiy tavsiflarini o'rganadi. Teplovozar-ning tortuv yuritmalari va totuv elektr dvigatellarini aravachaga joylashish turlari to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'ladi.	2 ta
5	Lokomotivlarning yordamchi tizimlari	Teplovozlardagi yordam tizimlarning ishlash sharoiti va vazifasi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish. Yordam tizim turlari bilan tanishish. Yonilg'i tizimining vazifasi va tuzilishini o'rganadi. Teplovozlarning rusumlari bo'yicha moy tizimi va unda qo'llaniladigan uskunlarning vazifasi va konstruksiyasi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Yonilg'ini mexanik qo'shimchalardan tozalash va uning turlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	4 ta

6	Lokomotivlarning yordamchi uskunalarning tuzilishi	Teplovozlarda qo'llaniladigan yordamchi tizim uskunalar bilan yaqindan tanishadi. Boshqarishning havo tizimi, shuningdek, pnevmatik tizimning tuzilishi va ishlash jarayoni to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Lokomotivlardagi qum tizimi va yong'inga qarshi uskunalar turlari hamda ularning vazifasini o'rganadi. Dizel vali va tortuv generatori valining bog'lanishi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	4 ta
7	Teplovozlarning dizellarini sovutish tizimlari	Ichki yonuv dvigatellariga ega bo'lgan teplovozlarning ekspluatatsion jarayoni bilan yaqindan biladi. Teplovoz issiqlik almashtirgich qurilmasining tuzilishini o'rganish va undagi elementlarni farqlay oladi. Dizellarni suv bilan sovutish tizimi funktsionalligi bilan tanishish. Teplovoz dizellarida nadduv havosini sovutish tizimi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki

elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O.T. Kasimov, Sh.F. Jamilov, B.X. Begaliyeva, S.S. G'aybullayeva. "Lokomotivlarni tuzilishi". Andijon. "Omadbek print number one" nashriyoti – 2024.

2. O.T. Kasimov. "Lokomotivlarning tuzilishi va loyihalashtirilishi" I-qism. Toshkent. "Omadbek print number one" nashriyoti – 2025,

3. O.T. Kasimov, N.V. Julenov, M.I. Xismatulin. "Lokomotivlarning tuzilishi va loyihalashtirilishi". Toshkent. "Transport" nashriyoti – 2022,

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*